



FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-iyul






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8863** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgust nisbatan **514** taga kamaygan (o'sish sur'ati **94,5 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **154** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **8709** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **12 502,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,5 %** ni tashkil etdi.

Shujumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 071,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 430,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 071,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,3 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	12 502,5	106,5	1 071,6	107,3	11 430,9	106,5
Shaharlar						
Farg'ona	2315,9	111,2	331,2	100,0	1984,7	113,3
Qo'qon	2256,1	108,0	174,8	136,3	2081,3	106,1
Quvasoy	218,4	106,5	17,8	63,6	200,7	113,2
Marg'ilon	1859,7	108,5	42,4	121,4	1817,3	108,2
Tumanlar						
Oltiariq	448,5	106,4	29,7	97,1	418,8	107,1
Qo'shtepa	322,0	105,5	5,9	121,9	316,1	105,2
Bag'dod	325,1	103,9	10,4	95,4	314,7	104,2
Buvayda	574,4	103,5	15,6	75,8	558,8	104,5
Beshariq	486,7	103,5	12,1	101,9	474,6	103,6
Quva	623,8	100,2	12,8	82,0	610,9	100,7
Uchko'prik	1011,8	106,7	364,1	111,3	647,7	104,3
Rishton	358,9	101,2	12,4	91,3	346,5	101,6
So'x	138,9	101,2	2,1	103,3	136,7	101,2
Toshloq	277,4	108,5	5,1	111,7	272,3	108,4
O'zbekiston	268,0	103,7	10,6	98,6	257,5	103,9
Farg'ona	335,9	101,2	5,9	113,8	329,9	101,0
Dang'ara	288,2	100,9	8,9	106,7	279,3	100,8
Furqat	196,7	104,8	4,5	95,8	192,1	105,1
Yozyovon	196,0	100,2	5,1	91,2	190,9	100,5

2023-yilning yanvar-iyul oylarida 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**111,2 %**), Marg'ilon (**108,5**) va Qo'qon (**108,0**) shaxarlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-iyul, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda yanvar-iyul oylarida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **108,6 %** ni yoki **10 544,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)**



▣ (2022-yil, 2023-yil yanvar-iyul oylari)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati **106,5 %** ni tashkil qildi.



JAMI
 mlrd. so'm
Jamiga nisbatan tovar aylanma si ulushi (foizda)

Farg'ona viloyati	12 502,5	100,0
Farg'ona sh.	2315,9	18,5
Qo'qon	2256,1	18,0
Quvasoy	218,4	1,7
Marg'ilon	1859,7	14,9
tumanlar		
Oltiariq t.	448,5	3,6
Qo'shtepa	322,0	2,6
Bag'dod	325,1	2,6
Buvayda	574,4	4,6
Beshariq	486,7	3,9
Quva	623,8	5,0
Uchko'prik	1011,8	8,1
Rishton	358,9	2,9
So'x	138,9	1,1
Toshloq	277,4	2,2
O'zbekiston	268,0	2,1
Farg'ona	335,9	2,7
Dang'ara	288,2	2,3
Furqat	196,7	1,6
Yozyovon	196,0	1,6

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Eng yuqori hajm, % da

1 Farg'ona – 18,5

2 Qo'qon – 18,0

3 Marg'ilon – 14,9

Eng quyisi hajm, % da

1 So'x – 1,1

2 Furqat – 1,6

3 Yozyovon - 1,6

Viloyat chakana savdo Tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shaxari **18,5 %** bilan **2 315,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyisi ulush esa, So'x tumani **1,1 %** bilan **138,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 430,9** mld. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,5 %** ga ko'paydi Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **107,3 %** ga o'sdi va **1 071,6** mld. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **8,6 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x** (98,5 %) **Farg'ona** (98,2 %) va **Toshloq** (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik** tumani (36,0 %), **Farg'ona** (14,3 %) va **Quvasoy** (8,1 %) shaharlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	3 129,1	104,4
Shaharlar		
Farg'ona	7 319,6	105,7
Qo'qon	7 397,0	92,3
Quvasoy	2 197,5	104,2
Marg'ilon	7 508,0	106,6
Tumanlar		
Oltiariq	1 995,0	104,2
Qo'shtepa	1 572,1	102,7
Bag'dod	1 419,8	101,8
Buvayda	2 365,9	101,1
Beshariq	2 034,8	101,8
Quva	2 294,1	98,4
Uchko'prik	4 262,0	107,3
Rishton	1 682,7	99,2
So'x	1 687,2	99,4
Toshloq	1 288,5	106,2
O'zbekiston	1 156,7	110,7
Farg'ona	1 540,6	103,1
Dang'ara	1 659,3	105,6
Furqat	1 573,5	102,6
Yozyovon	1 664,1	98,0


2023- yilning yanvar-iyul holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 129,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **104,4 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Marg'ilon (7 508,0 ming so'm) Qo'qon(7 397,0 ming so'm), va Farg'ona (7 319,6 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 071,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,3** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **641,8** mlrd. so'mni (**126,0** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **429,1** mlrd so'mni tashkil etdi (**89,5** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	1 071,2	108,3	641,8	126,0	429,4	89,5
Shaharlar						
Farg'ona	118,7	125,7	111,5	135,0	7,1	60,4
Qo'qon	120,1	103,1	67,8	101,3	52,3	105,5
Quvasoy	27,1	87,7	9,6	82,7	17,5	90,7
Marg'ilon	126,4	112,2	80,2	120,6	46,2	100,0
Tumanlar						
Oltiariq	27,5	58,9	12,3	52,9	15,2	64,8
Qo'shtepa	54,7	181,3	33,9	226,3	20,8	137,0
Bag'dod	33,7	66,0	18,3	75,6	15,5	57,4
Buvayda	140,4	222,6	101,5	418,8	38,9	100,2
Beshariq	123,7	135,3	65,5	160,0	58,2	115,2
Quva	77,2	143,8	54,0	259,7	23,1	70,5
Uchko'prik	35,0	113,6	7,7	107,5	27,3	115,4
Rishton	58,5	89,8	25,6	148,2	32,9	68,7
So'x	16,4	57,2	10,2	150,1	6,2	28,4
Toshloq	22,6	182,3	7,9	154,5	14,7	201,8
O'zbekiston	22,5	57,5	11,2	43,7	11,3	83,9
Farg'ona	21,3	39,0	13,2	34,3	8,1	50,0
Dang'ara	5,5	30,9	1,5	11,2	4,1	81,3
Furqat	1,4	28,5	1,4	28,5	-	-
Yozyovon	38,4	85,8	8,6	56,6	29,8	100,8

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **641,8** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**237,5** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 237,5
	Non va non mahsulotlari 44,1
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 104,1
	Tovuq go‘shti 35,8
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 50,3
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 14,0
	Tuxum 36,7
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 16,1
	Ziravorlar 20,1
	Tuzlamalar 11,5
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 10,2
	Nooziq-ovqat tovarlari 61,4

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **429,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **342,8** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **78,3** mlrd. so‘mni, otlar – **5,2** mlrd. so‘mni, parrandalar – **3,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	188,7
1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	82,9
1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar	71,2
Qo‘ylar	76,1
Otlar	5,2
Echkilar	2,1
Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,1
Tovuqlar	1,8
Quyonlar	0,1
Qushlar	0,2

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 954** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgust holatiga nisbatan **517** taga kamaygan va **79,1 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 951** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyul oyilarda umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **313,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,8 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **92,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	313,9	107,8	23,2	185,3	290,7	104,3
Shaharlar						
Farg'ona	114,5	112,9	23,2	185,3	91,3	102,7
Qo'qon	41,2	103,1	-	-	41,2	103,1
Quvasoy	13,9	100,6	-	-	13,9	100,6
Marg'ilon	42,0	109,4	-	-	42,0	109,4
Tumanlar						
Oltiariq	6,8	103,4	-	-	6,8	103,4
Qo'shtepa	4,3	104,1	-	-	4,3	104,1
Bag'dod	3,3	103,5	-	-	3,3	103,5
Buvayda	4,9	104,1	-	-	4,9	104,1
Beshariq	9,3	107,5	-	-	9,3	107,5
Quva	13,0	107,0	-	-	13,0	107,0
Uchko'prik	8,3	111,7	-	-	8,3	111,7
Rishton	14,0	103,4	-	-	14,0	103,4
So'x	4,1	101,7	-	-	4,1	101,7
Toshloq	10,5	100,9	-	-	10,5	100,9
O'zbekiston	3,9	103,3	-	-	3,9	103,3
Farg'ona	7,6	103,7	-	-	7,6	103,7
Dang'ara	6,5	105,6	-	-	6,5	105,6
Furqat	2,3	102,2	-	-	2,3	102,2
Yozyovon	3,5	103,7	-	-	3,5	103,7

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- avgust holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 147,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 032,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **147,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari savdo hajmi – **1 115,2** mlrd. so'mni o'tkan yilning mos davriga nisbatan **2,4 barobar ga** ko'paydi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	2 147,9	101,7
Shaharlar		
Farg'ona	737,8	87,3
Qo'qon	987,5	115,2
Quvasoy	5,3	102,7
Marg'ilon	145,9	149,3
Tumanlar		
Oltiariq	3,1	102,1
Qo'shtepa	4,2	102,3
Bag'dod	8,1	102,0
Buvayda	10,9	102,8
Beshariq	1,1	102,9
Quva	3,0	102,1
Uchko'prik	15,4	102,9
Rishton	2,6	102,0
So'x	3,6	234,5
Toshloq	16,5	102,8
O'zbekiston	4,8	102,4
Farg'ona	4,0	102,6
Dang'ara	77,3	102,6
Furqat	31,4	102,8
Yozyovon	85,4	67,0

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**987,5** mlrd. so'm), Farg'ona (**737,8** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**145,9** mlrd. so'm) shahar lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **8 464,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,8 %** ga o'sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **7 979,4** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,2 %** ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,3 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bag'dad tumani (**25,2 b.**), O'zbekiston (**2,0 b.**) va Dang'ara (**1,9 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4500 tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgust holatiga nisbatan 139 taga kamaygan, o'sish sur'ati 97,0 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4480 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	8 464,4	109,8	485,0	183,5	7 979,4	107,2
Shaharlar						
Farg'ona	1777,6	115,0	280,1	166,9	1497,6	108,6
Qo'qon	1603,0	118,7	34,2	101,1	1568,8	119,2
Quvasoy	262,7	117,8	-	-	262,7	117,8
Marg'ilon	1526,3	116,0	122,5	100,0	1403,8	106,7
Tumanlar						
Oltiariq	268,1	108,1	44,5	75,5	223,6	118,3
Qo'shtepa	113,1	106,9	-	-	113,1	106,9
Bag'dod	99,8	119,4	0,5	3 019,0	99,3	118,8
Buvayda	165,7	104,6	-	-	165,7	104,6
Beshariq	206,6	106,0	-	-	206,6	106,0
Quva	79,9	103,3	-	-	79,9	103,3
Uchko'prik	429,7	97,0	0,5	101,7	429,2	97,0
Rishton	31,6	106,9	0,7	91,9	30,9	107,3
So'x	9,1	67,4	0,4	83,6	8,7	66,8
Toshloq	1216,7	108,8	-	-	1216,7	108,8
O'zbekiston	124,0	87,7	0,4	147,6	123,6	87,6
Farg'ona	218,5	92,1	0,4	29,6	218,1	92,4
Dang'ara	194,9	80,4	0,4	197,7	194,4	80,3
Furqat	60,2	60,8	-	-	60,2	60,8
Yozyovon	77,0	96,9	0,5	178,6	76,5	96,6



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi**
Тел. 71-202-80-44 (45)